

Boshlovchi: Assalomu alaykum aziz ustozlar va hurmatli o'quvchilar. Bugungi kechamiz so'z mulking sultoni bo'lmish Alisher Navoiy bobomiz tavalludlarining 575 yilligiga bag'ishlaymiz va ularni xotiralab ruhini shod aylaymiz. Kimki bizni yod etsa, xaq uni yod etadi. Yo'limizga kim tikanlar sochsa, dushmanlik bilan fasl bog'i ichra gullar unsa bahor aylasin ikki odamda birovg'a ko'nglimizda yo'q g'ubor. Kimki bizga bersa ozor, aysh bisyor aylasin.

1. Alisher Navoiyning hayoti va ijodi haqida

2. Navoiy g'azallaridan na'munalar

1) Kecha kelgumdir debon

2) Ko'rgali husningni zoru

3. Sahna ko'rinishi: Husayn Bayqaro Xurosonning shohi bo'lganida Navoiy unga vaziri bo'lib xizmat qiladi. Saroy ahli, boshqa vazirlar uni chiqishtirmaganligi sababli u bu lavozimda 4 yil ishlaydi. Lekin donoligi, hozirjavobligi, aqli bilan saroy ahlini rom etadi.

Saroyda bazm bo'lmoqda. Husayn Bayqaro taxtda o'tiribdi. Raqqosalar raqs tushishayaptilar. Alisherning tashrifi haqida xabar berildi. Alisher yangigina yozgan she'rini o'qib eshittiradi:

Bilmaganni so'rab o'rgangan olim,

Orlanib so'ramagan o'ziga zolim.

Hikmatdan ta'sirlangan shoh Alisherni 2000 tillo bilan taqdirlaydi. Bundan norozi bo'lgan vazirlar janjal ko'taradilar. Taqsir har safar Alisherning hikmati uchun 1000 tanga in'om qilardingiz, endi esa 2000 tanga beribsiz. Nima uchun bizlarga ham bunday iltifotlar bildirmaysiz. Yo bizlar iltifotga noloyiqmizmi?

Podsho ularga g'azab bilan:

Agar mening savolimga yaxshi javob topsangiz 2000 tanga sizdan aylansin.

-Mayli olampanoh. Qancha savollariz bo'lsa, beravering bizlar javobni topamiz.

Husayn Bayqaro vazirlariga qarab chiqib, barmog'I bilan boshini ko'rsatadi.

Alisher esa barmog'I bilan tiliga ishora qiladi.

Hech narsani tushunmagan vazirlar bir birlariga qarab angrayib turaveradilar.

Husayn Bayqaro buyuradi:

Tinglang men ko'rsatkich barmog'im bilan boshimni ko'rsatdim, Mir Alisher esa barmog'I bilan tilini ko'rsatadi. Sizlar shu jumboqning ma'nosini topib kelinglar.

- Shohim bizga uch kun muhlat bersangiz, bu jumboqning javobini topurmiz.

- Sizlarga ruxsat.

Vazirlar o'ylay-o'ylay jumboqning javobini topa olmay Alisherning huzuriga bordilar va undan javobini so'rabdilar.

Alisher: - Agar har biringiz 1000 tangadan bersangiz, 40000 ming tanga evaziga mayli jumboqning javobini aytub berurman. 40 ta vazir rozi bo'libdilar. Alisher Navoiy – Sulton: boshga balo nimadan keladi, - deb so'radi.

Men: "Har kimning boshiga balo kelsa, o'zining tilidan keladi" – deb javob berdim.

Buni eshitib vazirlar saroyga yugurdilar.

Ular: men topdim, men topdim.

Sulton Husayn – "Tinchlaning, tinchlaning, ho'sh jumboqning javobini topdinglarmi"?

Vazirlar: Ha, shohim har boshga balo tildan keladur.

Sulton Husayn – To'g'risini ayting, bu gaplarni sizga kim o'rgatdi. To'g'risini aytmasangiz hammangizni o'limga buyuraman.

Jallod (chapak chalib).

Vazirlar: bir qoshiq qonimizdan keching olampanoh so'rovingizni do'stingiz
Alisherdan so'rab bildik.

Husayn Bayqaro: Shu gap rostmi do'stim Alisher?

Alisher: Ha, olampanoh, javobimni ular 40000 tanga bilan siyladilar.

Husayn Bayqaro: ofarin, sizlarga. Men Alisherga 2000 tanga bersam, sizlar bir o'giz so'z uchun 40000 tanga beribsizlarda. Do'stim, bu kun sizlarga bir saboq bermish. Umid qilurmahki, bu saboq sizlarga to'g'ri yo'l ko'rsatadi. Izzat bermas naqlu diram borlug'i. Kim bo'ldi tamagir kishining horligi.

4. Do'ppi tikdim (o'yin)

5. Hikmatlar: Umrni zoye etma mehnat qil,
Mehnatni saodatning kaliti bil.

Ko'p degan ko'p yengilur,
Ko'p yegan ko'p yiqilur.

Oz-oz o'rganib dona bo'lur,
Qatra-qatra yig'ilib daryo bo'lur.

Tun kuningga aylagin nur posh,
Birisin oy ayla, birisin quyosh.

Boshni fido ayla ato qoshig'a,
Jismni qil satha ano qoshig'a.

Hunarni asrabon netgumdir oxir,
Olib tuproqqamu ketgumdir oxir.

Alisher bir kuni she'r yozib, uni bog'da baland ovoz bilan o'qiy boshladi:

Har yerda bahor bo'lsa, chaman bo'lsa kerak
Har yerda chaman, gulu-suman bo'lsa kerak,
Har yerda hazon bo'lsa, tikan bo'lsa kerak,
Har yerda tikon nihon bo'lsa kerak.

Navoiyning yoqimli ovozda she'r o'qishini eshitga bulbul undan so'rabdi:

- Ey hushovoz shoir, sen o'qigan she'rlar bulbullarning erta tongdagi navosidan ham yoqimli ekan. Nomingni bilsam bo'ladimi?
- Alisher! – deb javob beradi bola. Bildim bildim yangi chiqqan shoir ekansan-da. Endi o'zingga chiroyli taxallus tanlab she'rlaringni oxiriga o'shani yoz.
- Navo qanday chiroyla so'z-a! rahmat bulbuljon sen menga taxallus tanlashda yordam berding. Bu kundan boshlab men she'rlarimning tagiga Navoiy deb qo'shib qo'yaman.

1465-yili Navoiy Samarqand tomon yo'l oladi va shoir sifatida juda katta shuhrat topa boradi. Shoirning dastlabki yozgan she'riy kitobi "Ilk debon" nomi bilan mashxurdir. Shu bilan bir qatorda shoir (1469-1472) yillari saroyda muxtor, (1472-1476) yillarda vazir, (1487-1488) yillarida Astrabodda hokimlik qilgan. Hokimlik davrida Navoiy

shaharni obod, xalqni to'q va faravon yashashi uchun bir qancha ishlarni amalga oshirdi, lekin vatan va yurtiga bo'lgan muhabbati bir soniya ham unga tinchlik bermadi va yurtini qumsab bir qancha asarlar yaratdi.

Yo rabki inoyatingni yor ayla manga
Yo'qlikka hidoyatingni bor ayla manga
Har qahri kifoyatingni dor ayla manga
Har duru inoyatingni nisor ayla manga

G'urbatda g'arib shodmon bo'lmas emish,
El anga shafiqu mehribon bo'lmas emish
Oltin qafas ichra gar qizil gul bitsa
Bulbulga tikandek oshiyon bo'lmas emish

Navoiyning eng katta orzusi yirik dostonlar hamda turkiy tilda "Xamsa" yaratish edi. 1485-yili shoir turkiy tilda birinchi marotaba "Xamsa" yaratib Husayn Bayqaroga taqdim etdi. XV asrgacha turk tili mavjud bo'lgan, lekin o'sha paytda shoirlar bu tilni kambag'al deb fors tilida asarlar yaratgan. Manashu davrlarga bir muhtaram zot Mir Alisher Navoiy hazratlari nuqta qo'ydilar.

Bog'da shoir she'r mashq qilayapti:

Turk nazmida shu men tortib alam
Ayladum ul mamlakatin yakqalam

Shoirning ustozlari Lutfiy kirib keladi: salomlashgach shoir Lutfiyga turkiyda bitgan ikki qator g'azalini o'qib beradi. G'azaldan zavqlangan Lutfiy shoirning:

Orazin yopqoch ko'zimdin to'kilur har lahza yosh
Bo'ylakim paydo bo'lur yulduz nihon bo'lg'ach quyosh

Shu misralari uchun o'zining 12000 baytli butun asarini almashishga tayyor ekanligini aytdi.

Navoiy g'azallaridan na'munalar:

Boshlovchi: bizlar ana shunday iqtidorli, iste'dodli mutafakkir avlodlari ekanligimizdan g'ururga to'lib, ularning ijodlari, hayot va faoliyatlari bilan yaqindan tanishishimiz, o'qib o'rganishimiz kerak.

Boshlovchi: Ruboiylar.

G'urbatda g'arib shodmon bo'lmas emish,
El anga shafiqu mehribon bo'lmas emish
Oltin qafas ichra gar qizil gul bitsa
Bulbulga tikandek oshiyon bo'lmas emish

Zohid, senga huru, menga – jonona kerak,
Jannat senga bo'lsin, menga – mayxona kerak.
Mayxona aro soqi-yu paymona kerak,
Paymona necha bo'lsa,, to'la yona kerak.

Jondin seni ko'p sevarman, ey umri aziz,
Sandin seni ko'p sevarman ko'p sevarman ey umru aziz
Har neki sevmak andin ortiq bo'lmas,
Ondin seni ko'p sevarman ey umri aziz.

“Jon”imdagi “jim” ikki dolingga fido,
Andin so'ng “alif” toza niholingga fido,
“Nun”I dog'I anbarin hilolingga fido,
Qolgan ikki nuqta, ikki holingga fido.

6. O'yin: yana sog'indim yana

O'zbek ijodkorlari uchun Navoiyning merosi bo'lgan ham katta maktab vazifasini o'tamoqda. Bu kunga kelib bobomizning ulug' nomlari abadiylashtirildi. Ularning nomlarida viloyat, shahar, bog'lar, maydonlar, teatr va maktablar bor. Qanchadan-qancha badiiy asarlarga, teatr sahnalarida, kinoekranlarda bobomiz obrazlari yaratilgan. Ularning ruhi avlodlarning ko'zi qarog'ida, ardog'ida yashamoqda.

Aziz ustozlar! Xurmatli mehmonlar va tengdoshlar bugun biz Navoiy hayoti va ijodidan ba'zi bir lavhalarnigina tilga oldik. Ularning hayoti va ijodlari haqida sizlarga ozgina bo'lsada saboq bera olgan bo'lsak, juda baxtiyor bo'lar edik. Shu bilan bugungi kechamizga yakun yasaymiz. Tashrif buyurganingiz uchun rahmat. Xayr, sog' boling.